

**O‘ZBEKISTONDA CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIKNING
O‘RGANILISHI**

To‘lqin ALLAYOROV,
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti dotsenti, f.f.f.d., PhD,*

Gulbonu SHUKUROVA,
*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878316>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada chog‘ishtirma tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga to‘xtaladi. O‘zbekistonda chog‘ishtirma tilshunoslikka hissa qo‘shgan tilshunoslar va ularning olib brogan tadqiqotlari haqida so‘z yuritiladi.*

***Аннотация.** В статье рассматривается специфика сравнительного языкознания. В статье обсуждаются лингвисты, внесшие вклад в сравнительное языкознание в Узбекистане, и их исследования.*

***Annotation.** This article focuses on the analysis of the specific features of comparative linguistics. It discusses linguists who have contributed to comparative linguistics in Uzbekistan and the research they have conducted.*

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistlar iste‘molga olib kirgan qiyosiy, chog‘ishtirma, taqqoslash, lingvistik tipologiya, kontrastiv lingvistika kabi atamalar qiyosiy yoki chog‘ishtirma tilshunoslik muammolarini ilmiy tahlildan o‘tkazish uchun ishlatiladi. Aslida bu yo‘nalishlarning har biri nazariy tilshunoslikning mustaqil bo‘limlari sifatida dunyo tilshunoslarining e‘tiborini tortib kelmoqda. O‘zbekistonda chog‘ishtirma tilshunoslikning tamal toshini E.D.Polivanov¹ qo‘ygan. Uning “Russkaya grammatika v sopostavlenii s uzbekskom yazikom” asari keyinchalik ko‘pgina turli morfologik strukturaga ega bo‘lgan tillarni chog‘ishtirishda klassik namuna bo‘lib xizmat qilgan. Xorijiy tillarni o‘zbek tili subsistemalari bilan chog‘ishtirishni professorlar J.Bo‘ronov, O‘.Yusupov, A.Abduazizov, M.Abdurazzaqov, S.Rahimovlar boshlab berishgan. Hozirgi kunga kelib chog‘ishtirma tilshunoslikning turli aspektlari mustaqil yo‘nalishga aylanib, o‘z maqsad va vazifalariga, o‘rniga, ahamiyatiga ega bo‘ldi. Jumladan, chog‘ishtirma lingvistikaning alohida yo‘nalishi hisoblanmish lingvistik tipologiya² uning boshqa

¹ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Polivanov,_Yevgeniy_Dmitriyevich

² <https://milliycha.uz/ru/lingvistik-tipologiya/>

aspektlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanishini tilshunoslar alohida ta’kidlamodalar.

Chog‘ishtirma lingvistika rivojiga qiyosiy-tarixiy tilshunoslik katta ta’sir ko‘rsatgan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik chog‘ishtirma lingvistika bilan chambarchas bog‘liq, chunki u tillar sistemasini qiyolashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asosiy tekshirish obyekti tillarni chog‘ishtirish bo‘lgan. Hind-yevropa va turkiy tillarni qiyoslashga Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” (1499) asari klassik namuna bo‘lib xizmat qiladi. Navoiyning bu asarida ilk bor kelib chiqishi jihatidan bir-biri bilan bog‘lanmagan va qarindosh bo‘lmagan tillar – eski o‘zbek va fors tillari leksik, grammatik va so‘z yasash aspektlari nuqtai nazaridan qiyoslangan. Muallif bu asarida o‘zbek tilining o‘ziga xos va fors tilida bir xil yarus birligi bo‘lolmaydigan xususiyatlarini ochib bergan. Chog‘ishtirma lingvistikaning shakllanishiga Mahmud az-Zamaxshariy arab va fors tillarini qiyoslash bilan, Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarlari bilan salmoqli hissa qo‘shishgan. Ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariyning qarindosh tillarni chog‘ishtirishga bag‘ishlangan asari qiyosiy lingvistikaning keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan va hanuz chog‘ishtirma lingvistikaning klassik namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hind-yevropa tilshunosligi tarixida chog‘ishtirma lingvistikaning rivojlanishi uch bosqichdan iborat bo‘lsa, unda Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda qay tarzda shakllangan degan savol tug‘ilishi tabiiy. O‘zbekistonda ham chog‘ishtirma lingvistikaning shakllanishi uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqich yoki ilk davri Mahmud az-Zamaxshariy, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy asarlari bilan belgilanib, bu davrda Movarounnahrda chog‘ishtirma lingvistikaning tamal toshi qo‘yiladi.

Ikkinchi davri O‘zbekistonda xorijiy tillarning keng ko‘lamda o‘qitilishi va xorijiy til bilan o‘zbek tili grammatik subkategoriyalarini qiyoslashga asoslangan bo‘lib, u XX asrning 60-yillaridan XXI asrning birinchi o‘n yilligigacha qamrab oladi.

Uchinchi davri esa XXI asrning birinchi o‘n yilligidan boshlandi va hozirda davom etmoqda. Ikkinchi davr, asosan, lingvistik kategoriyalarni subsistema (subsystem) usulida chog‘ishtirgan bo‘lsa, uchinchi davr “xoulsistem” (wholesystem) usulida tilni tizim sifatida chog‘ishtirishga o‘tgan.

Mustaqillik yillarida Respublikamizning ikki yetakchi oliygohi – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillar instituti qoshida roman-german filologiyasi bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalari himoyasiga ixtisoslashgan ilmiy kengashlar faoliyat ko‘rsatib, ularda yurtimizning ko‘zga ko‘ringan olimlari G‘aybulla as-Salom, J.Bo‘ronov, O‘.Q.Yusupov,

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

Sh.Safarov, A.A.Abduazizov, M.E.Umarxo‘jaev, A.E.Mamatov, S.Rahimov, E.Begmatov, A.M.Bushuy, X.Orziqulov, G.X.Boqieva, D.U.Ashurova, M.I.Rasulovalar faol ishtirok etishgan. Zikr etilgan ilmiy kengashlarning barcha majlislarida chog‘ishtirma lingvistikaning dolzarb muammolari muhokama etilgan. Jumladan, G.X.Boqiyevaning ingliz, rus, o‘zbek tillarining grammatik kategoriyalarini qiyoslash, D.U.Ashurovaning morfemalarning matn hosil qilishi, M.I.Rasulovaning lingvistikada leksik sathning yoritilishi, G‘.M.Hoshimovning gipotaksis hodisasiga bag‘ishlangan doktorlik dissertasiyalari mustaqillik yillarining mahsuli hisoblanadi. Biz bu yerda faqat global muammolarni tadqiq etgan mualliflar haqida to‘xtaldik, xolos. Chog‘ishtirma lingvistika masalalariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertasiyalari talaygina va bu haqda alohida maxsus to‘xtalish talab etiladi.



Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq professor J.Bo‘ronov tashabbusi bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tashkil etilgan ixtisoslashgan ilmiy kengashda himoya qilingan dissertasiyalarning 90 foizi chog‘ishtirma lingvistikaning yechimini kutayotgan muammolariga bag‘ishlangani bilan ahamiyatlidir. Professor J.Bo‘ronovning ingliz va turk tillarining lingvistik kategoriyalarini chog‘ishtirishga bag‘ishlangan monografiyasi, A.A.Abduazizovning ingliz va o‘zbek tillari fonetik va

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

fonologik xususiyatlari yoritilgan ilmiy ishlari, O‘.Q.Yusupovning chog‘ishtirma lingvistikani boshqa yo‘nalishlardan farqlab beruvchi risolasi, S.Rahimovning chog‘ishtirma tilshunoslikning global muammolariga bag‘ishlangan monografiyasi mamlakatimiz tilshunosligida XX asr oxiri –XXI asr boshlarida chog‘ishtirma lingvistikaning tamal toshi qo‘yilishiga asos bo‘lgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, Sh.Safarovning “Semantika” nomli monografiyasida ham chog‘ishtirma lingvistikaning ayrim tamoyillari xususida fikrlar bildirilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda chog‘ishtirma tilshunoslikning izchil rivojlanishi dastlab umumiy til o‘rganish yo‘nalishi sifatida boshlangan bo‘lsa, hozirgi kunda ilmiy-uslubiy, nazariy-amaliy asosga ega keng qamrovli fan tarmog‘iga aylangan. Chog‘ishtirma tilshunoslik nafaqat turkiy tillarni, balki o‘zbek tilining boshqa til oilalari bilan o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Polivanov E.D. Русская грамматика в сопоставлении с узбекском языком. Т.: Госиздат, 1934-yil. 182-bet
2. Sarimsakov B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – Т.: Fan, 1972.
3. Tursunov U. Chog‘ishtirma tilshunoslik asoslari. – Т.: Fan, 2008.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Т.: Fan, 1980.
5. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
6. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
7. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
8. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
9. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
10. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
11. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf